

## **VIRTUAL SUD MAJLISLARINING PROTSESSUAL MUAMMOLARI**

**Xakimxo‘jayeva Sevdol Kamol qizi**

sevdolxakimxojayeva@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining sud tizimiga joriy etilishi natijasida shakllangan virtual sud majlislarining protsessual-huquqiy jihatlari batafsil tahlil qilinadi. Xususan, masofaviy sud yuritish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar taraflarning protsessual tengligi ta‘minlanishi, dalillarni taqdim etish va ularni bevosita tekshirish jarayonidagi muammolar va ularning samaradorligi, sud majlislarining oshkoraligi va ochiqligi tamoyillariga rioya etilishini ta‘minlash, shuningdek, ishtirokchilarni identifikatsiya qilish bilan bog‘liq huquqiy va texnik masalalar chuqur o‘rganiladi. Sud jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, jumladan videokonferensiya va telekonferensiya orqali masofaviy majlislarni tashkil etish, ularning huquqiy va texnik jihatlari yoritilib chet el, jumladan, Yevropa Ittifoqi va Litva sud tizimlaridagi tajribalari, elektron ish yuritish tizimi, sud statistikasi va ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rilishi haqida batafsil to‘xtaladi. Covid-19 pandemiyasi davrida masofaviy sud majlislari sud ishining uzluksizligini ta‘minladi, ishtirokchilar uchun vaqt va xarajatlarni tejash imkonini berdi hamda jarayonlarning samaradorligini oshirdi. Shu sababli, maqolada virtual sud majlislari bilan bog‘liq protsessual muammolar, jumladan ishtirokchilarni*

*identifikatsiyalash, elektron dalillarni qabul qilish, maxfiylikni ta'minlash va advokat ishtiroki masalalari ham batafsil tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** virtual sud majlislari, masofaviy sud, videokonferensiya, elektron dalil, Covid-19, protsessual muammolar, sud jarayoni, e-Justice.*

### **ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВИРТУАЛЬНЫХ СУДЕБНЫХ ЗАСЕДАНИЙ**

**Хакимходжаева Севдо Камол кызы**

sevdoxakimxojayeva@gmail.com

Ташкентский государственный юридический университет Факультет публичного права, 2-курс студентка

***Аннотация:** В данном исследовании подробно анализируются процессуально-правовые аспекты виртуальных судебных заседаний, сформировавшихся в результате внедрения современных информационно-коммуникационных технологий в судебную систему. В частности, рассматриваются основные проблемы дистанционного судопроизводства: обеспечение процессуального равенства сторон, эффективность механизмов представления и непосредственной проверки доказательств, соблюдение принципов прозрачности и открытости судебных заседаний, а также правовые и технические вопросы, связанные с идентификацией участников. В работе освещаются вопросы использования информационно-коммуникационных технологий в судопроизводстве, включая организацию дистанционных заседаний посредством видеоконференций и телеконференций, их правовые и технические аспекты, а также зарубежный опыт, в том числе системы судопроизводства Европейского Союза и Литвы, электронный документооборот, судебная статистика и*

SJIF: 5.051

меры по защите прав участников. В период пандемии Covid-19 дистанционные судебные заседания обеспечили непрерывность работы судов, позволили участникам экономить время и средства, а также повысили эффективность процессов. Поэтому в статье подробно анализируются процессуальные проблемы виртуальных судебных заседаний, включая идентификацию участников, принятие электронных доказательств, обеспечение конфиденциальности и участие адвоката.

**Ключевые слова:** виртуальные судебные заседания, дистанционный суд, видеоконференция, электронные доказательства, Covid-19, процессуальные проблемы, судебный процесс, e-Justice.

## **PROCEDURAL ISSUES OF VIRTUAL COURT HEARINGS**

Khakimkhojayeva Sevdo Kamol qizi

[sevdokimxojayeva@gmail.com](mailto:sevdokimxojayeva@gmail.com)

Tashkent State University of Law Faculty of Public Law, 2nd-year student

**Abstract:** *This study provides a detailed analysis of the procedural and legal aspects of virtual court hearings formed as a result of the introduction of modern information and communication technologies in the judicial system. In particular, it examines the main challenges in remote judicial proceedings: ensuring procedural equality of the parties, the effectiveness of mechanisms for presenting and directly examining evidence, compliance with the principles of transparency and openness of court hearings, as well as legal and technical issues related to participant identification. The study highlights the use of information and communication technologies in court proceedings, including organizing remote hearings through videoconferencing and teleconferencing, their legal and*

*technical aspects, as well as foreign experiences, including the court systems of the European Union and Lithuania, electronic case management, court statistics, and measures to protect the rights of participants. During the Covid-19 pandemic, remote court hearings ensured the continuity of judicial work, allowed participants to save time and costs, and increased the efficiency of proceedings. Therefore, the article provides a detailed analysis of procedural issues related to virtual court hearings, including participant identification, admissibility of electronic evidence, confidentiality, and lawyer participation.*

*Keywords: virtual court hearings, remote court, videoconferencing, electronic evidence, Covid-19, procedural issues, court proceedings, e-Justice.*

## KIRISH

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sud tizimiga keng joriy etilayotgani virtual yoki masofaviy sud majlislarini tashkil etish imkoniyatini yaratdi. Virtual sud majlisi deganda, sud jarayonida sudya, taraflar, advokatlar, guvohlar va boshqa ishtirokchilar sud zalida jismonan ishtirok etmasdan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida masofadan turib qatnashishi tushuniladi. Virtual sud majislari ishtirokchilarning joylashuvi va vaqtiga bog‘liq bo‘lmagan holda sud jarayonlarini davom ettirish imkonini berishda, shuningdek, jarayonlarning samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirishda bir qancha imkoniyatlarni yaratib beradi. Har bir vazifaning kamchiligi bo‘lganidek, virtual sud majlisi jarayonida ishtirokchilarni identifikatsiyalash qiyinligi, texnik muammolar, ba‘zi dalillarni bevosita tekshirishning cheklanganligi kabi muammolarga duch kelish tabiiy hol. Bunday sud majislari odatda videokonferensiya aloqa vositalari orqali tashkil etiladi va barcha protsessual

harakatlar onlayn tarzda amalga oshiriladi. Masalan, sud jarayoni Vilniusdagi sudda bo‘layotgan bo‘lsa, lekin advokat va guvohlar boshqa shahar yoki mamlakatdan internet orqali ishtirok qilsa bu virtual sud majlisi hisoblanadi. Ushbu muammolar orasida taraflarning protsessual tengligini ta‘minlash, elektron dalillarni taqdim etish va ularni bevosita tekshirish, sud majlislarining oshkoraligi va maxfiyligini ta‘minlash, ishtirokchilarni identifikatsiya qilish va advokat ishtirokini nazorat qilish kabi masalalar muhim o‘rin tutadi. Yevropa davlatlarida sud majlislari Adliya sudlari orqali amalga oshirilishida E-Justice (elektron adliya) barcha sud protsesslarini masofaviy ko‘rinishiga o‘tishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.<sup>1</sup> Masofaviy sud majlislari Yevropa Ittifoqi va Litva huquqiy hujjatlarida XXI asrning ikkinchi o‘n yilligi boshlaridayoq ta o‘lina boshlandi. Bizda ham sud tizimida yengilliklar yaratish, aholi murojaatlarini tez va samarali amalga oshirish maqsadida “Elektron sud” tizimi joriy etilgan. Unda elektron to‘lovlar, sud majlisi jadvallari, sud qarorlarining to‘plamlari, sud hujjatlari namunalari, sudga elektron murojaat qilish hamda sud ishi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelganda rahbariyat bilan bog‘lanish bo‘lim va

xizmatlari mavjud.

#### METODOLOGIYA

Mazkur maqola davomida virtual sud majlislarining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi bir nechta bir biriga bog‘liq usullar majmuasidan iborat bo‘lib, ular orqali muammoning mohiyati har tomonlama ochib beriladi. Avvalo, normativ-huquqiy tahlil usuli asosida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy sud bo‘yicha kodekslarda nazarda tutilgan

videokonferensiya orqali sud majlislarini o'tkazish tartibi, "Elektron sud" tizimining huquqiy asoslari hamda sud jarayonlarini raqamlashtirishga qaratilgan Prezident qarorlari va boshqa normativ- huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Shu bilan birga O'zbekistonda elektron tizim bilan olib boriladigan har qanday faoliyat, ya'ni fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari Konstitutsiya, shuningdek, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Ushbu usul orqali milliy qonunchilikda virtual sud majlislarini tartibga solish darajasi, mavjud bo'shliqlar va amaliy muammolar aniqlashtirildi. Shu bilan birga, tadqiqotda qiyosiy-huquqiy usul keng qo'llanilib, unda rivojlangan davlatlar tajribasi, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Estoniya va Singapur kabi mamlakatlarda virtual sud majlislarini tashkil etish amaliyoti o'rganildi. Masalan, AQShda sud jarayonlarida Zoom va boshqa platformalar keng qo'llanilib, pandemiya davrida sud tizimining uzluksiz faoliyati ta'minlangan. Buyuk Britaniyada esa "Online Court" tizimi orqali ayrim toifadagi ishlar to'liq onlayn ko'rib chiqilishi yo'lga qo'yilgan.<sup>1</sup> Estoniya tajribasida esa raqamli davlat konsepsiyasi doirasida sud tizimi to'liq elektronlashtirilgan bo'lib, fuqarolar sud xizmatlaridan masofadan turib samarali foydalanish imkoniyatiga ega. Ushbu davlatlar tajribasi O'zbekiston uchun muhim qiyosiy asos bo'lib xizmat qildi va milliy tizimni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga yordam berdi.

#### MUHOKAMA

Sud tizimining elektron shaklga o'tishi COVID-19  
pandemiyasining

1 O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Elektron sud tizimi bo‘yicha tahliliy materiallar, Toshkent, 2022, 12–18- betlar.

boshlanishi bilan har bir sohasiga kirib o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Asta- sekin insonlarning odil sudlovga bo‘lgan huquqini saqlab qolish hamda sudlar faoliyatini to‘xtatmaslik maqsadida masofaviy sud majlislari o‘tkazilishiga bosqichma-bosqich o‘tila boshlandi. Ma‘lum bo‘lishicha, ma‘muriy sudlovda, ayniqsa kvazi-sud tuzilmalarining ishini tashkil etishda bunday majlislarni deyarli muammosiz qo‘llash mumkin. Shu sababli ma‘muriy sudlar va kvazi-sud tashkilotlarida masofaviy majlislarni tashkil etish karantin bo‘lmagan davrda ham ish yuritish ishtirokchilarining xohishiga ko‘ra davom ettirildi. Virtual sudlar belgilangan tartibda o‘tkazilishiga ko‘ra uch xil turga bo‘linadi:

□ Videokonferensaloqa rejimidagi majlislar – ushbu sud jarayonida ishtirokchi yaqin bo‘lgan boshqa bir sud binosiga borib o‘zining ishi ko‘rilayotgan sud bilan bog‘lanadi. Masalan, da‘vogar Nukusda, sud esa Toshkentda ko‘rilsa, Nukus sudida videokonferensiya orqali Toshkentdagi sud bilan bog‘lanadi. Bu tajriba, asosan, Yevropa mamlakatlarida amal qiladi.

□ Masofaviy (virtual) sud majlislari bo‘lib, bunda taraflar o‘z uyi, ofisi yoki ish joyidan turib( planshet, telefon, noutbuk) maxsus platforma orqali ulanadi.

□ Sud o‘tkazilishining gibrid shakli esa, aralash hisoblanib, sud jarayoni bir qismi ( sudya, prokuror, advokat) sud zalida bevosita ishtirok etadi, boshqa ishtirokchilar(chet el guvohi va boshqa shaxslar) agar ular bilan bog‘liq fors-major holatlar yuz berganda, ayniqsa suniy intellekt orqali

Fuqarolarning sud-huquq tizimidan foydalanish imkoniyatlari yanada kengaytirilishi maqsadida Prezidentimiz tomonidan qator qonunchiliklarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, ushbu hujjat fuqarolarning sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi va Ma'muriy sud

ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlarni o'z ichiga oladi. Xususan, videokonferensiya orqali ishtirok etayotgan guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlarga ularning huquqlari, burchlari va majburiyatlari tushuntirilishi kerak. Ularning qasamyodi audio va video uskunalar yordamida yozib olinadi, yozuv esa sud majlisi bayonnomasida rasman qayd etiladi. Masofaviy ishtirokni osonlashtirish uchun yashash joyi, vaqtinchalik yashash joyi yoki ko'rib chiqilayotgan ish joylashgan joyga yaqin sudlarda o'rnatilgan videokonferensiya tizimlaridan foydalaniladi. Jumladan, Iqtisodiy protsessual kodeksning 166-moddasida, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi Fuqarolik protsessual kodeksining 206-moddasi va boshqa qonunlarda sud majlisini videokonferensiya rejimida amaga oshirish va unda ishtirok etish tartib va huquqi protsessi, videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda ishtirok etayotgan guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga, tarjimonlarga o'z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi tushuntirilganligi audio- va videoyozuv orqali qayd etiladi va bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko'rsatilishi belgilab qo'yilgan. "Fuqarolik, jinoyat va ma'muriy ishlarni ko'rishda sud majlislarini videokonferensaloqa

rejimida o‘tkazishning ayrim masalalari to‘g‘risida” 23-sonli PQ da protsessual qonun hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgunga qadar, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar hamda ma‘muriy sudlar protsess ishtirokchilarining roziligi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlarida o‘rnatilgan telekommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda sud majlislarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazishga haqli ekanligi huquqi mustahkamlab qo‘yilgan.<sup>3</sup> Bunda, sud majlislarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazishning zaruriy sharti ishda ishtirok etuvchi shaxslardan loaqal bittasi boshqa ma‘muriy-hududiy birlik (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) hududida, ya‘ni ishni ko‘rayotgan sud joylashgan hududdan tashqarida joylashgan bo‘lishi lozimligi hisoblanadi.

Xalqaro tajribaga ko‘ra tahlil qiladigan bo‘linsa, Raqamli adliya tizimini rivojlantirish yo‘lidagi dastlabki muhim qadamlardan biri Council of the European Union tomonidan qabul qilingan 2009–2013-yillarga mo‘ljallangan e-Justice

2 O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi

3 PQ-23-son qaror, Sud majlislarini videokonferensiya rejimida o‘tkazish masalalari, 2020

Harakatlar rejasi bo‘ldi.<sup>5</sup> Ushbu konsepsiya doirasida e-Justice — fuqarolik, jinoyat va ma‘muriy sudlov jarayonlarida axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, bunday tizim samarali ishlashi uchun u nafaqat texnik jihatdan mukammal, balki foydalanuvchilar uchun ishonchli, ochiq va qulay bo‘lishi zarur. A‘zo davlatlar

o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlik tamoyillari ham bu jarayonda muhim o'rin tutadi. Court of Justice of the European Union (CJEU)ning 2020-yilgi hisobotida qayd etilganidek, raqamlashtirish jarayoni pandemiyadan ancha oldin boshlangan bo'lsa-da, aynan COVID-19 davri bu sohada keskin burilish nuqtasiga aylandi. Pandemiya sharoitida sud tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlash zarurati masofaviy sud majlislarini keng joriy etishga turtki berdi va videokonferensiya texnologiyalaridan foydalanish amaliyotini tezlashtirdi. Onlayn sud majlisi bo'yicha ko'rilsa, Hindiston tajribasi, xususan Gujarat High Court faoliyatida sud pandemiya sharoitida videokonferensiya orqali sud majlislarini tashkil etib, muhim protsessual qarorlar qabul qilgan. Jumladan, Gujarat Oliy sudi tomonidan videokonferensiya orqali o'tkazilgan sud majlisida barcha amaldagi vaqtinchalik sud qarorlarining amal qilish muddatini uzaytirilgan. Ushbu qaror COVID-19 pandemiyasi sabab joriy etilgan karantin choralarini inobatga olgan holda qabul qilingan bo'lib, sud jarayonlarining to'xtab qolishining oldini olishga xizmat qilgan. Xususan, 2020-yil mart oyida chiqarilgan qarorga ko'ra, 19-mart holatiga amal qilayotgan barcha oraliq sud qarorlari 15-iyungacha uzaytirilgan. Biroq, bu turdagi videokonferensiya sudlarida amaliyot bilan bir qatorda ayrim muammolar ham yuzaga kelishi kuzatildi. Taraflarni to'liq identifikatsiyasini ta'minlash, texnik nosozliklar tufayli jarayonning uzilishi, hamda oshkoralik tamoyilining to'liq ta'minlanishi kabi holatlar kuzatildi. Shunga qaramay, Gujarat Oliy sudi tajribasi virtual sud majlislarining samarali qo'llanishi mumkinligini amalda tasdiqlaydi va boshqa davlatlar uchun ham namunaviy onlayn sud majlisi bo'lib qolaverdi. Virtual sud majlislarida elektron dalillar bilan ishlash masalasi eng muhim konvensiyalardan biri "Budapest Convention on Cybercrime" da ham

mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur konvensiya kiberjinoatlarga qarshi kurashish bilan bir qatorda, elektron dalillarni yig'ish, saqlash va ulardan foydalanishning protsessual asoslarini ham belgilab beradi.

### NATIJALAR

Bu tarzdagi sud majlislarini o'tkazishning yaxshi tomonlari bor bo'lgani kabi, fuqarolar uchun salbiy taraflari ham anchagina yetarli. Birinchidan, virtual sud protsessi jarayonida sud zali befarqlik hissiyotlarining qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hissiy investitsiyalarning yo'qligini keltirib chiqarishi mumkin. An'anaviy sud zali sharoitida tomonlar o'rtasida tanishlik sud zalida tomonlarning jismoniy yaqinligi orqali yaratiladi, ammo sud jarayoni virtual ravishda amalga oshirilganda, qaror qabul qiluvchilar tomonlar bilan faqat ekran orqali uchrashganda, ishning insoniylik tuyg'usi hamda insonparvarlik prinsipining pasayishi kabi holatlarga sabab bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, virtual sud majlislari, ya'ni masofaviy sharoitlarda o'tkaziladigan sud jarayonlarida sudyalarning qarorlarida an'anaviy sud majlislariga nisbatan sezilarli farqlar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, garov puli belgilashda yuqoriroq summalar tayinlanish ehtimoli ortadi. Shuningdek, immigratsiya va deportatsiya masalalarida virtual sud jarayonlarida ariza beruvchilar deportatsiya qilinish ehtimoli ham oshishi kuzatilgan. Bu holat, virtual sud jarayonlarida qaror qabul qiluvchi va ishtirokchi guvoh yoki ariza beruvchi o'rtasida "insonparvarlikdan chetlashtiruvchi to'siq" paydo bo'lish xavfini kuchaytiradi. Sud jarayonlarining an'anaviy shaklida tomonlar va sudya o'rtasidagi yaqinlik empatiya va hissiy anglashuvni oshirgan bo'lsa, sharoitda bu imkoniyat sezilarli

darajada kamayadi.<sup>4</sup> Bundan tashqari, virtual sud jarayonlari ishonchlilikni baholash va tarjima xizmatlaridan samarali foydalanish kabi amaliyotlarni qiyinlashtiradi. Masofaviy sharoitda ogʻzaki boʻlmagan muloqotni aniqlash va tushunish qobiliyatining pasayishi, qaror qabul qilishda insonparvarlik elementini yanada cheklaydi. Natijada, virtual sud jarayonlari anʼanaviy sudlarga nisbatan hissiy chuqurlik va empatiya nuqtai nazaridan sezilarli darajada cheklangan boʻlishi mumkin. Shu bilan birga, masofaviy sud majlislari oʻziga xos qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi.

Masofaviy sud majlislarini tashkil etishda uchraydigan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

4 Virtual Courts: Challenges and Opportunities”, International Commission of Jurists, Courts and Digital Technologies, Geneva, 2024, pp. 18–22.

1. Texnologiyalarga cheklangan kirish imkoniyati – barcha ishtirokchilar guvohlar, advokatlar va sudlanuvchilar – zarur texnologik vositalar va barqaror internet aloqasiga ega boʻlmasligi mumkin. Bu esa sud jarayonlarida adolatli ishtirokni cheklaydi.

2. Texnik nosozliklar – videokonferensiya vositalaridagi texnik muammolar – past audio va video sifati, ulanishdagi uzilishlar yoki dasturiy taʼminot xatolari – sud jarayonining toʻliq va adolatli olib borilishiga xalaqit beradi.

3. Maxfiylikni ta'minlashdagi qiyinchilik – ishtirokchilar shaxsiy va jim joydan ulana olmasligi mumkin, bu esa advokat-mijoz maxfiyligi va guvohlarning ishonchliligiga ta'sir qiladi.

4. Xavfsizlik bilan bog'liq tahdidlar – virtual sudlar kiberxavfsizlik muammolariga moyil bo'lib, hujjatlar va ish ma'lumotlariga ruxsatsiz kirish xavfi mavjud.

5. Ishonchlilikni baholashdagi murakkabliklar – sudyalar virtual muhitda guvohlarning xulq-atvori va ishonchliligini aniq baholashda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa qaror qabul qilish sifatiga ta'sir qiladi.

6. Cheklangan og'zaki bo'lmagan muloqot – tana tili, yuz ifodalari va boshqa noverbal signallarni virtual majlislarda to'liq aniqlash qiyin bo'ladi, natijada ishtirokchilarning hissiy holatini tushunish murakkablashadi.<sup>5</sup>

7. Dalillarni taqdim etishdagi qiyinchiliklar –eksponatlar , hujjatlar va moddiy dalillarni masofadan samarali ko'rsatish va tekshirish murakkab, bu esa ish jarayonida kechikish va chalkashliklarga olib keladi.

8. Protsessual qiyinchiliklar – masofaviy sudlar har doim standart protsessual tartiblarga to'liq mos kelmasligi mumkin, bu esa adolatlilik va sud jarayonining izchilligiga shubha tug'diradi.

9. Huquqiy vakillik bilan bog'liq cheklovlar – sudlanuvchilar advokatlari bilan masofaviy maslahatlashishda qiynalishi mumkin, bu ularning ishonchli himoya huquqini ta'minlash imkoniyatini kamaytiradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun texnologik infratuzilmani yaxshilash, sud xodimlari va advokatlar uchun maxsus treninglar tashkil etish, xavfsiz va

5 Court of Justice of the European Union, Annual Report 2025, Luxembourg, 2025, pp. 45–47.

ishonchli virtual platformalarni joriy etish hamda masofaviy sud majlislarini olib borish bo'yicha aniq ko'rsatmalar ishlab chiqish muhimdir. Shu tariqa, masofaviy va gibrid sud majlislari qulaylik va tezkorlikni ta'minlagan holda, adolatli va ochiq huquqiy tizimni saqlashga xizmat qiladi. amaliyotlar buning yaqqol misolidir.

Telekonferensiya — masofaviy sudlov vositasi sifatida. Masofaviy jarayonning imkoniyatlari va huquqiy tartibga solinishi

Sud jarayonlarida videokonferensiyadan foydalanish bir qator Yevropa hujjatlarida nazarda tutilgan (Council of the European Union, 2000, 2001a, 2001b, 2004; European Parliament va Council of the European Union, 2007). Biroq madaniy, til va texnik omillar sababli bu imkoniyat amaliyotda kam qo'llanilgan. Shunga qaramay, videokonferensiya ko'plab afzalliklarga ega: u vaqt va mablag'ni tejaydi, ortiqcha safarlarni kamaytiradi, sud jarayonlarini yanada moslashuvchan qiladi va boshqaruvni soddalashtiradi. Yevropa e-Justice portali tomonidan "Transchegaraviy sud jarayonlarida videokonferensiyadan foydalanish bo'yicha qo'llanma" (2013) ishlab chiqilgan bo'lib, unda Yevropa Ittifoqi doirasidagi sud ishlarida videokonferensiya texnologiyalaridan foydalanish tartibi yoritilgan. 2021-yil 30-iyunda European Commission for the Efficiency of Justice tomonidan sud jarayonlarida videokonferensiyadan foydalanish bo'yicha maxsus yo'riqnomalar e'lon qilingan.<sup>6</sup> Ushbu yo'riqnomalarda davlatlar va sud organlari

videokonferensiyadan foydalanishda qanday choralar ko‘rishi lozimligi belgilangan bo‘lib, ular sud jarayonining adolatliligiga putur yetkazmasligi kerak. Bu talab European Convention on Human Rightsning 6-moddasida belgilangan adolatli sud muhokamasi huquqiga asoslanadi. Shuningdek, ushbu jarayonlar shaxsiy ma‘lumotlarni avtomatik qayta ishlashga doir himoya talablariga ham mos bo‘lishi lozim (Council of Europe, 1981). Mazkur yo‘riqnomalar barcha turdagi sud ishlariga tatbiq etiladi. Unda videokonferensiya ikki tomonlama va bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladigan audio va video aloqa tizimi sifatida ta‘riflanadi, ya‘ni masofaviy sud majlisi davomida ishtirokchilar bir-birini ko‘rishi, eshitishi va bevosita muloqot qilishi mumkin bo‘ladi. Sud faoliyatini raqamlashtirishdagi muhim muammolardan

6 European Commission. e-Justice Portal – Using Videoconferencing in Cross- Border Proceedings. 2024.

biri elektron dalillar bilan bog‘liq masalalardir. Council of Europening 2019-yildagi yo‘riqnomalarida elektron dalilga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Elektron dalil bu dasturiy ta‘minotga bog‘liq holda ishlovchi qurilma orqali olingan yoki kompyuter tizimi yoki tarmog‘ida saqlanadigan, uzatiladigan ma‘lumotlardan kelib chiqadigan har qanday dalildir.”<sup>7</sup> Shuningdek, ushbu hujjatlarda elektron dalillar, jumladan masofadan turib berilgan og‘zaki ko‘rsatmalar ham boshqa turdagi dalillar bilan teng darajada ko‘rib chiqilishi kerakligi qayd etiladi. Ya‘ni, ularning

qabul qilinishi, haqiqiyliги (autentikligi), aniqligi va yaxlitligi umumiy dalillar bilan bir xil mezonlar asosida baholanishi lozim.

#### XULOSA

International Commission of Jurists sud jarayonlarida videokonferensiya va shunga o'xshash texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'z ilmiy maqolalarida batafsil tahlil va tavsiyalar beradi. Ularning tajribasini o'rgangan holda qonunchiligimizga bir qancha tavsifiya va takliflar berishimiz mumkin. Jumladan, raqamli sud jarayonlari barcha sud ishtirokchilari uchun yordam ko'rsatishni osonlashtirishi kerak. Shu bilan birga, taraflarning an'anaviy, noraqamli tizimlarda ega bo'lgan barcha protsessual huquqlari raqamli tizimda ham to'liq saqlanishi shart. Bundan tashqari, e-Justice tizimi advokatlarning huquqiy majburiyatlarini hisobga olishi lozim, chunki ular o'z mijozlari manfaatlarini hamda qonun ustuvorligini himoya qiladi. Qonunchilikka, agar sud majlislari onlayn o'tkaziladigan bo'lsa quyidagi takliflarni berishimiz mumkin: birinchidan, virtual sud majlisi va uning protsesslari bo'yicha yangi tartib o'rnatish, alohida qoida yohud yo'riqnom ishlab chiqish lozim. Chunki barcha sudlarda virtual ko'rish bosqichi amaliyotda bir xil tartibda o'tkaziladi. Ikkinchidan, virtual sud majlisida ishtirok etuvchi shaxslarni aniqlash tartibini qonunchilikda aniq ko'rsatish zarur. Jumladan: biometrik identifikatsiya tizimini joriy etish, elektron raqamli imzo orqali tasdiqlash va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni elektron shaklda tekshirish tizimini joriy etish lozim. Texnik nosozliklar yuzaga kelganda protsessual tartibni belgilash bo'lishi lozim. Chunki texnik holatlarda bugungi kunda nozozliklar kuzatilishi shubhasz. Shuninguchun agar, nozozliklar sodir etilganda sud majlisini to'xtatish, keyinga qoldirish hamda

7 “2023-yilda masofaviy sudlarni boshqarish bilan bog'liq 9 ta eng katta muammo”. Ilmiy-metodik jurnal, 7-bet

protsessual muddatlarni tiklash kabi tartiblarni qonunchilik darajasida belgilash lozim. Agarda sud majlisi to‘laligicha virtual bo‘lsa, advokat bilan suhbatlari maxfiyligini saqlash lozim. Dalillar taqdim etishida elektron tartibbo‘lishi yohud shunday tizim bo‘lishi keakki, unga kirilsa har ikki tarafning ham ish bo‘yicha dalillari batafsil keltirib o‘tilsin. Qonunchilikda kolliziyalar juda ko‘p, faqatgina shu sohani to‘liq o‘rganib qamrab olish muhim o‘rin tutadi.

#### REFERENCES

1. Yuridik fanlar axborotnomasi. Sud tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari. – Toshkent, 2021. <https://strategy.uz/index.php?news=1115&lang=uz>
2. Council of Europe. Guidelines on Videoconferencing in Judicial Proceedings. 2021.
3. European Commission for the Efficiency of Justice. Guidelines on Videoconferencing in Judicial Proceedings. 30 June 2021. <https://www.fja.gc.ca/COVID-19/pdf/Virtual-Hearings-Operational-Considerations-Audiences-Virtuelles-Enjeux-Operationnels-eng.pdf>
4. 3. Court of Justice of the European Union. Annual Report 2020. Luxembourg, 2024. <https://www.greerinjurlawyers.com/advantages-and-disadvantages-of-virtual-court-hearings/>

5. European Commission. e-Justice Portal – Using Videoconferencing in Cross- Border Proceedings. 2013.
6. International Commission of Jurists. Courts and COVID-19: Challenges and Opportunities. 2020.
7. Council of the European Union. e-Justice Action Plan 2009–2013. Brussels, 2009.
8. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi.  
<https://lex.uz/acts/-3517337>
9. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi.  
<https://lex.uz/mact/-3523891> O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sud tizimini raqamlashtirishga oid  
  
qarorlarI: <https://lex.uz/uz/docs/-3250191>
11. Susskind R. Online Courts and the Future of Justice. Oxford University Press, 2019